

ZAMONAVIY TA’LIM MUHITIDA TALABALARDA MULOQOTNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK AHAMIYATI

*Andijon davlat pedagogika instituti
“Pedagogika va psixologiya” kafedrasida o’qituvchisi
Shukurova Iliminur Baxtiyorjon qizi
Andijon davlat pedagogika instituti
“Ijtimoiy va amaliy fanlar” fakulteti
1-bosqich talabasi Sotvoldiyeva Mushtariybonu*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19410800>

Annotatsiya. Mazkur maqolada talabalarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishida muloqotning ahamiyati tahlil qilinadi. Muloqot jarayonining talabalarning psixologik barqarorligi, bilim olish samaradorligi hamda ijtimoiy moslashuviga ta’siri ilmiy jihatdan yoritiladi. Shuningdek, talabalik davrida samarali muloqot madaniyatini shakllantirishning muhim jihatlari ko’rib chiqiladi.

Kalit so’zlar: muloqot, talaba, shaxslararo munosabatlar, ijtimoiy moslashuv, kommunikativ kompetensiya, psixologik rivojlanish.

Аннотация. В данной статье анализируется значение коммуникации в личностном и социальном развитии студентов. Научно освещено влияние коммуникативного процесса на психологическую устойчивость студентов, эффективность обучения и социальную адаптацию. Также рассмотрены важные аспекты формирования эффективной коммуникативной культуры в студенческой жизни.

Ключевые слова: коммуникация, студент, межличностные отношения, социальная адаптация, коммуникативная компетентность, психологическое развитие.

Abstract. This article analyzes the importance of communication in the personal and social development of students. The impact of the communication process on the psychological stability of students, the effectiveness of learning, and social adaptation is scientifically highlighted. Also, important aspects of forming an effective communication culture during student life are considered.

Keywords: communication, student, interpersonal relationships, social adaptation, communicative competence, psychological development

Kirish. Bugungi kunda jahon psixologiya va pedagogika tadqiqotlarida shaxs rivojlanishida ijtimoiy muloqot muhim omillardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Psixologik nuqtayi nazardan qaraganda, insonning fikrlashi, bilimlarni o’zlashtirishi hamda ijtimoiy tajriba orttirishi ko’p jihatdan boshqa insonlar bilan o’zaro muloqot jarayonida shakllanadi. Ayniqsa, talabalik davri shaxsning intellektual va ijtimoiy rivojlanish bosqichi bo’lib, bu davrda muloqot jarayonlari bilim olish, fikr almashish va tajriba orttirishning muhim vositasi sifatida namoyon bo’ladi.

Shu sababli zamonaviy jahon ta’lim tizimida talabalar o’rtasidagi muloqot ta’lim jarayonining muhim pedagogik omillaridan biri sifatida qaralmoqda. Zamonaviy oliy ta’lim muassasalarida nafaqat nazariy bilim berish, balki talabalarning erkin fikrlashi, o’z nuqtai nazarini asoslab bera olishi va jamoa bilan samarali hamkorlikda ishlay olishini rivojlantirish ham muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Bu borada bir qator Xalqaro tashkilotlar ham ta’lim jarayonida samarali kommunikatsiyaning muhimligini ta’kidlab kelmoqda. Jumladan, UNESCO tomonidan ilgari surilgan ta’lim konsepsiyalarida talabalar va o’qituvchilar o’rtasidagi ochiq va samarali muloqot sifatli ta’limning

muhim sharti sifatida ko’rsatib o’tilgan [1]. Shuningdek, “Organisation for Economic Co-operation and Development” tadqiqotlariga ko’ra, ta’lim jarayonida faol muloqot mavjud bo’lgan muhitda talabalar bilimni chuqurroq o’zlashtirishi aniqlangan [2]. O’zbekistonda ham talabalar muloqoti, erkin fikr almashish va kommunikativ ko’nikmalarni rivojlantirish davlat siyosatining muhim yo’nalishlaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, O’zbekistonda Respublikasi qonun hujjatlarida ushbu masalaga alohida e’tibor berilgan bo’lib, 24.12.2025-y dagi “Oliy ta’lim tashkilotlarini kompleks davlat akkreditatsiyasidan o’tkazishda baholash mezonlari bo’yicha indikatorlarni tasdiqlash haqida”gi buyrug’ida alohida ahamiyat berilgan [3].

Shu sababli talabalar o’rtasidagi muloqot va uning ta’lim jarayonidagi ahamiyati ko’plab psixolog va pedagog olimlarning ilmiy tadqiqotlarida ham keng o’rganilgan. Turli nazariy yondashuvlarda muloqot shaxs rivojlanishi, bilimlarni o’zlashtirish hamda ijtimoiy tajriba shakllanishining muhim omili sifatida talqin etiladi. Ayniqsa, ijtimoiy psixologiya va pedagogik psixologiya sohasida olib borilgan tadqiqotlarda muloqotning shaxs kamolotidagi o’rni alohida ta’kidlanadi.

Adabiyotlar tahlili. Bir qator olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, muloqot va muomala ko’nikmalariga ega bo’lgan talabalar, o’zlarining akademik va kasbiy faoliyatlarida ko’proq muvaffaqiyatga erishadi. Bulardan L.Vygotskiyning ijtimoiy-madaniy rivojlanish nazariyasida aytishicha, shaxs rivojlanishida muloqot muhim vosita ekanligini ta’kidlagan. Uning fikriga ko’ra, inson tafakkuri va bilimlari asosan ijtimoiy muhit bilan muloqot jarayonida shakllanadi [4]. Yana, Amerikalik psixolog Carl Rogers esa shaxslararo munosabatlarda samimiy muloqot, empatiya va o’zaro hurmat muhim ekanligini ta’kidlaydi. Uning nazariyasiga ko’ra, ochiq va ijobiy muloqot shaxsning psixologik rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko’rsatadi [5].

Shuningdek, amerikalik pedagog va faylasuf J.Dewey ta’lim jarayonida muloqot va hamkorlik muhim o’rin tutishini ta’kidlagan. Uning fikriga ko’ra, ta’lim faqat bilim berish jarayoni emas, balki talabalar o’rtasidagi faol muloqot, fikr almashish va tajriba orqali o’rganish jarayonidir. Dewey ta’lim jarayonida talabalar o’z fikrlarini erkin ifoda etishi, o’zaro muloqot orqali bilimlarini mustahkamlashi va ijtimoiy tajriba orttirishini muhim deb hisoblaydi [6]. Shuning uchun ham samarali muloqot talabalarning bilim olish jarayonini rivojlantiruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Natija. Olib borilgan nazariy tahlillar shuni ko’rsatadiki, talabalar o’rtasidagi samarali muloqot ta’lim jarayonining samaradorligini oshiruvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Talabalarning o’zaro fikr almashuvi, guruhli muhokamalar va hamkorlikdagi faoliyatlari bilimlarni chuqurroq o’zlashtirish, o’rganilayotgan mavzuni turli nuqtai nazardan tahlil qilish hamda muammoli vaziyatlarga mustaqil yechim topish imkoniyatini yaratadi.

Tahlillar shuni ko’rsatadiki, muloqot jarayonida talabalar nafaqat bilimlarni o’zlashtiradi, balki kommunikativ, ijtimoiy va shaxsiy kompetensiyalarni ham rivojlantiradi. Ayniqsa, ochiq muloqot muhiti mavjud bo’lgan ta’lim muassasalarida talabalar o’z fikrini erkin ifoda etish, boshqalarning qarashlarini hurmat bilan qabul qilish va jamoa bilan samarali hamkorlik qilish ko’nikmalarini egallaydi.

Bundan tashqari, ta’lim jarayonida interaktiv metodlardan foydalanish talabalar faolligini oshirishga xizmat qiladi. Guruhli muhokamalar, debatlar, seminar mashg’ulotlari hamda loyihaviy faoliyat talabalarning tanqidiy fikrlash, tahlil qilish va muammolarni birgalikda hal etish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Natijada talabalarda nafaqat akademik bilimlar, balki kelajakdagi kasbiy faoliyat uchun zarur bo’lgan kommunikativ kompetensiyalar ham shakllanadi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, oliy ta’lim muassasalarida talabalar o’rtasida samarali muloqot muhitini yaratish ta’lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ta’lim

jarayonida muloqotni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik yondashuvlar talabalarning shaxsiy rivojlanishi, ijtimoiy faolligi va kasbiy tayyorgarligini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, talabalar o’rtasidagi muloqot shaxsning intellektual, ijtimoiy va psixologik rivojlanishida muhim o’rin tutadi. Ta’lim jarayonida samarali muloqot muhiti mavjud bo’lishi talabalarning bilimni chuqurroq o’zlashtirishiga, mustaqil fikrlashiga hamda o’z nuqtai nazarini asoslab bera olishiga yordam beradi.

Zamonaviy ta’lim tizimida talabalar muloqotini rivojlantirish ta’lim samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Chunki muloqot jarayonida talabalar o’zaro fikr almashadi, turli qarashlarni tahlil qiladi hamda muammoli vaziyatlarga birgalikda yechim topishni o’rganadi. Bu esa ularda tanqidiy fikrlash, ijodkorlik va mustaqil qaror qabul qilish kabi muhim kompetensiyalarni shakllantiradi.

Shu sababli oliy ta’lim muassasalarida talabalar o’rtasida ochiq va samarali muloqot muhitini yaratish, interaktiv o’qitish metodlaridan keng foydalanish hamda guruhli hamkorlikka asoslangan ta’lim jarayonini tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday yondashuv talabalarni ta’lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirib, ularning shaxsiy rivojlanishi, ijtimoiy faolligi va kelajakdagi kasbiy faoliyatida muvaffaqiyat qozonishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. UNESCO. *Education 2030: Incheon Declaration and Framework for Action for the Implementation of Sustainable Development Goal 4*. Paris: UNESCO Publishing, 2015.
2. Organisation for Economic Co-operation and Development. *Unlocking High-Quality Teaching*. Paris: OECD Publishing, 2025. https://www.oecd.org/en/publications/unlocking-high-quality-teaching_f5b82176-en/full-report/fostering-classroom-interaction_75e0ccd7.html
3. Ta’lim sifatini ta’minlash milliy agentligi direktorining 2025-yil 2-dekabrda 5-son buyrug’i. “Oliy ta’lim tashkilotlarini kompleks davlat akkreditatsiyasidan o’tkazishda baholash mezonlari bo’yicha indikatorlarni tasdiqlash haqida”. https://www.lex.uz/pdf/7937311?utm_source
4. Vygotskiy L.S. *Mind in Society*. – Harvard University Press, 1978. <https://home.fau.edu/musgrove/web/vygotsky1978.pdf>
5. Rogers C. *On Becoming a Person*. – Boston: Houghton Mifflin, 1961.3. https://www.academia.edu/20184763/Rogers_Carl_1961_On_Becoming_a_Person
6. Dewey J. *Democracy and Education*. New York: Macmillan, 1916.
7. I.B.Shukurova (2025) “Ko’p avlodli oilalarning ijtimoiy-psixologik jihatlari: zamonaviy xorijiy tadqiqotlar tahlili” O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2025, [1/3/1] ISSN 2181-7324. 234-236-b.